

YOSH QUYONLARNING O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA HARORATNING TA‘SIRINI O‘RGANISH

Ergashev Alisher Anvarjonovich

SDVU Toshkent filiali assistenti

Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich

SDVU Toshkent filiali katta o‘qituvchi

Toshmatov Anvar Utkirovich

SDVU Toshkent filiali magistranti

Xolbo‘tayev Ilyosjon Rustam o‘g‘li

SDVU Toshkent filiali magistranti

ANNOTATION

The purpose of the experiment in this article is to study the dependence of the thickness, growth and development of rabbit fur on temperature. The beginning of the experiment: 10 baby rabbits, born and weaned at the same time, were divided into two groups for experience and control. The average weight of rabbits was determined, and both groups received the same diet.

АННОТАЦИЯ

Целью эксперимента в данной статье является изучение зависимости толщины, роста и развития шерсти кроликов от температуры. Начало эксперимента: 10 крольчат, родившихся и отлученных одновременно, разделили на две группы для опыта и контроля. Определяли среднюю массу кроликов, и обе группы получали одинаковый рацион.

Kalit so‘zlar: quyon, ozuqa, ratsion, xolestrin, yog‘, go‘sht, teri, so‘yim chiqimi, qo‘lqop, telpak, palto, kamzil, sumkalar va kartmonlar.

Kirish. Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Chorvachilikni xususiylashtirish natijasida chorva hayvonlarining haqiqiy egasi topildi, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda chorva bosh

sonlari ko‘payib, mahsulot yetishtirish keskin oshdi va shu asosda chorvachilikning tarmog‘i bo‘lgan quyunchilik ham rivojlanmoqda

Chorvachilikda go‘sht, tuxum, baliq mahsulotlari bilan bir qatorda quyon go‘shti yetishtirish alohida ahamiyatga ega. Quyoning tanasi kichik bo‘lsada, beradigan mahsuloti inson uchun juda foydali ekanligini eslatib o‘tmoqchimiz. Quyon go‘shti sog‘liq uchun foydali bo‘lib, boshqa go‘shlardan ta‘mi va parhez xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi muzlatilgan quyon go‘shidan barcha mavsumlarda foydalanish imkonini beradi.

Quyunchilik rivojlangan asosiy davlatlar qatoriga Fransiya, Italiya, Amerika shuningdek, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Vengriya, Polsha va Balgariya kiradi.

Italiya (300 ming t), Fransiya (150 ming t), Ispaniya (130 ming t), Germaniya (22 ming t), Angliya (20 ming t) va Amerika (10 ming t) quyon go‘shti ishlab chiqaradi. Shuni xam ta‘kidlab o‘tish kerakki, jaxonda xammasi bo‘lib, 1,0-1,7 mln. t quyon go‘shti yetishtirilayotgan bo‘lsa, shundan taxminan yarmi Xitoyda ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda Argentina, Braziliya, Indoneziya, Gana, Nigeriya va boshqa ko‘plab davlatlarda quyon go‘shti ishlab chiqarish soxasi rivojlanib bormoqda.

Jaxonda **sanoat usulida** quyon boqish keng tadbiiq etilgan bo‘lib, maxsus setkalarda, yopiq binolarda optimal mikroklimat sharoiti ta‘minlangan holda to‘liq ratsion asosida belgilangan ozuqa bilan boqiladi.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra quyon go‘shining biologik qiymati, yumshoqligi hamda yog‘ va xolesterin moddasining kamligini hisobga olib, aholini barcha qatlamiga shuningdek turli kasalliklarga chalingan (allergiya, gipertoniya, oshqozon-ichak, me‘da, o‘t pufak, jigar kasalliklari)ga chalinganlarga uni istemol qilishni tavsiya etiladi.

Shuningdek Quyon go‘shti kishi organizmida oshqozon shiralari ta‘sirida tez hazm bo‘ladi. U og‘ir, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar, uchuvchi, g‘avvos, sportchi, zararli ishlab chiqarishda ishlovchilar, ifloslangan hududlarda yashovchi aholi uchun ham foydalidir. Quyon go‘shti, ayniqsa, to‘laqonli oqsil moddasiga ehtiyoji bo‘lgan shaxslar – maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘smirlar, emizikli ayollar, keksalar uchun ham juda foydalidir. Inson xayoti davomida istemol qiladigan ozuqalar tarkibidagi to‘yingan yog‘larni kamaytirish xususiyatiga ega. Quyon yog‘i jarohatlarni davolashda, qichima va allergiyaga qarshi vosita sifatida qo‘llaniladi. Undan pardozi va davolovchi dori-darmonlar ham tayyorlanadi.

Oqsil miqdori qo‘y, mol, cho‘chqa go‘shlariga qaraganda yuqoridi, vitamin va mineral tarkibiga ko‘ra quyon go‘shti deyarli barcha go‘sh turlaridan ustun turadi. Quyon

go'shti tarkibidagi vitaminlar va temir, fosfor, kobalt, marganes, ftor, kaliy moddalarini boshqa hech qaysi go'sht bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Momiqdan fetra mahsulotlari shlyapalar, valenka uchun qo'y juniga aralashtiriladi jempir sharf, quloqchin.

So'yim chiqitlaridan qon uni tayyorlanadi.

Quyvon ichaklaridan musiqa asboblari uchun sim-tor tayyorlanadi.

Teridan erkaklar uchun podtyashka, remen, 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun qo'lqop, telpak, palto, kamzil, sumkalar, kartmonlar va boshqa turli narsalar.

Eng yaxshi yelim ham aynan quyvon chiqitlaridan (qulog'i, dumi ichki a'zolaridan) yog'och maxsulotlar uchun.

Organik o'g'it (go'ngi) 20 bosh quyvonchilik agro firmalari 500 bosh quyvondan bog'dorchilik va sabzavotlar uchun yaxshi o'g'it hisoblangan 100 t go'ng oladi.

Medsina va veterinariya o'quv yurtlari, ilmiy tekshirish institutlarida quyvonlar biologik ob'ekt sifatida foydalaniladi. Ulardan turli biologik preparatlar jumladan turli vaksinalar (oqsilga, o'latga) tayyorlab sinashda foydalaniladi.

Ishlab chiqarish yo'nalishiga qarab quyvonchilik ikki guruhga, ya'ni go'sht va go'sht teriga bo'linadi. Go'sht yo'nalishida quyvon bolalari 60-70 kunlikda, go'sht teri yo'nalishida esa 3-4 oyligida so'yiladi. Har bir ona quyvondan yil davomida 6-7 marta bola olish mumkin. Bu esa 80-90 kg go'sht, 30-40 dona sifatli teri demakdir. Quyvonlardan go'sht va teridan tashqari momiq ham olinadi. Quyvon momig'i ingichkaligi, pishiqligi, issiqlikni o'tkazish bo'yicha mayin yungli qo'ylarning yungidan qolishmaydi. 1kg. quyvon momig'idan juda ko'p miqdorda bosh kiyimini tayyorlash mumkin.

Quyvon mo'ynasi yengil chiroyli va arzon bo'lganligi uchun undan bolalar qishki kiyimi, quloqchin, yoqa, poyabzal tayyorlanadi. Binobarin xalq xo'jaligidagi uning ahamiyati juda katta.

1-jadval.

Quyvonlarni bir kecha-kunduz va yillik oziqa ratsioni

№	Ozuqa tarkibi	Jami bir kunlik ratsion (gr.)	Jami bir yillik ratsion (kg)
1	Makkajo'xori	10	3,7
2	Bug'doy	10	3,7
3	Arpa	40	4,0
4	Sabzi	25	2,5
5	Karam	15	1,5
6	Quruq beda yoki so'ligan o'tlar	50	5,0
	Jami ozuqa	150	54,8

Quyondan juda mayin va nozik tivit xam olinadi, undan sharf, ro‘mol, svetir, beret, paypoq, qo‘lqop, sumka, yengil oyoq kiyimlari tayyorlanadi.

O‘zbekiston sharoitida asosiy va qo‘shimcha tarmoq sifatida yangi tashkil etilgan agrofimlar, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida, bolalar bog‘chasida, maktablar, kollejlarda, institutlarda va harbiy qismlarda 2 ming boshdan 5 ming boshgacha boqish maqsadga muvofiq. Bu esa o‘z navbatida 15-1100 tonna tirik vazn hisobida go‘sh t olish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda quyunchilik fermalarining aniq maqsadi mavjud emas lekin O‘zbekiston sharoitida 2-3, 6-12 va 15 ming boshgacha boqish yaxshi samara beradi. Quyonlar saqlanadigan qafaslar orasi 2-2,5 sm, o‘tish yo‘lagi qafaslar esa 1 qavatli bo‘lishi kerak. Inventar va har kunlik ozuqa zaxirasi uchun 8-10 o‘lchamdagi joy binoning o‘rtasida bo‘lgani ma’qul hisoblanadi.

Quyonxona uchun deraza 2 tabaqali oyna, ustki qismiga fortochka qo‘yilib ketish kerak. Binoni yaxshi shamollatish kerak. Deraza poldan 1.20 m qo‘yilishi kerak. Shifti 2,8 sm gacha bo‘ladi. Devorlar rangi oq bo‘lishi kerak, buning uchun oxak ishlatilishi kerak. Quyonxona uchun kirish darvozasi 1,2 va 1,5 o‘lchamda tashqariga ochiladigan xolatda o‘rnatiladi. Xodimlar uchun kirish eshigi 0,8 m qo‘yiladi. Quyonxona o‘lchamlari 12 x 2,4 m binoga 3800 bosh ona quyonlar, 12 ming bosh yosh naslli quyonlar va 25 ming bosh bo‘rdoqiga boqiladigan yosh quyonlar joylashtiriladi.

2-jadval.

Turli yoshdagi quyonlar uchun ozuqa ratsioni (gramm)

Yoshi (kun hisobida)	Oziq birligi	Hazm bo‘ladigan oqsil	Donli oziq	Qishda		Yozda ko‘k oziq yoki xashaki karam
				qand lavlagi yoki sabzi	pichan	
25-30	65	7	35	20	60	200
50-55	85	9	40	50	74	250
55-60	85	9	40	80	75	250
60-65	95	10	40	80	80	300
65-70	110	11	50	80	90	400
70-75	115	12	55	80	90	400

Quyonxona qurilishi uchun namlikka chidamli, ya’ni suv yuqtirmaydigan, mog‘orlab ketmaydigan qurilish xom–ashyosidan foydalaniladi.

Bir ona quyov uchun $3,3 - 3,5 \text{ m}^3$, yosh quyovlar uchun bo'rdiqiga $0,55 - 0,60 \text{ m}^3$ joy tashkil etiladi.

Quyov oxurlari eni $8-10 \text{ sm}$, balandligi 15 sm -gacha oziqlanish fronti 6 sm bo'ladi. Ona quyov uchun tug'ruqxonasi tashqariga o'rnatiladi.

Suvdoni esa oxirda 10 sm yuqoriroq qo'yilishi kerak. Chunki, ularda jadal moddalar almashinuvi kesradi. Shuning uchun toza suv doimo bo'lishi kerak. Oziqa oxiridan pastda bo'lsa, u tez ifloslanadi. Quyovlar uchun soatiga 4 m^3 , yozda va qishda $0,5$; bahor va kuzda $1,5 \text{ m}^3$ /soatiga havo almashishi tavsiya etiladi.

To'shama sifatida eng yaxshisi daraxt qirindisi issiqlikni saqlash ko'rsatkichi 100% -ga teng, hashaklar 84% ga, somon 79% -ga teng. Bir bosh quyov uchun bir yilga 3 kg to'shama sarflanadi. Imkon darajasda somondan to'shama sifatida foydalanmaslik kerak. Namlik $40 - 70\%$, shamol tezligi bino ichida $0,3 \text{ m/s}$ kanbonad angidrid 10 mt/m^3 birligi kerak va quyovlarda xaroratni sezish (gomoyotermiya) $30-45$ kunda rivojlanadi.

Yosh quyovlar 25°C dan past bo'lsa ular uchun sovuq hisoblanadi. 10 S^0 dan sovuq bo'lsa o'sishi $16,6\%$ -ga tug'ilgan quyovlarda yashash imkoniyatlari $6,3\%$ pasayadi 10°C haroratda oziqlari istemol qilish 33% ortadi shuni hisobga olib qish, kuz va baxor oylariga harorat $15-20^\circ\text{C}$ bo'lishi shart yoz oyiga 25°C oshmasligi kerak. Namlik $70-75\%$ bo'lishi kerak.

Tajribadan maqsad quyovlar yungining qalinligi, o'sish va rivojlanishiga haroratga bog'liqligini o'rganishdir. Tajriba shundan boshlanadi: bir vaqtda tug'ilgan va sutdan ajratilgan quyovchalardan 10 tasi ajratib olinib, ular tajriba va nazorat uchun ikki guruhga ajratildi. Quyovchalarning o'rtacha massasi aniqlanib, har ikkala guruh ham bir xil ratsion asosida boqildi. Agar ushbu tajriba qish faslida amalga oshirilsa yaxshiroq samara beradi. Buni birinchi guruh (nazorat guruhi) quyovchalarning katagi tashqariga qo'yiladi. Ikkinchi guruh (tajriba guruhi) quyovchalarning katagi xonada issiqroq joyda qoldiriladi. Odatda xonaning harorati $19-20^\circ\text{C}$ atrofida bo'ladi. Tashqaridagi harorat esa 0° dan 5°C gacha bo'lishi mumkin.

Tajriba $2-2,5$ oy davom etib, bu davrda har ikkala guruh quyovlarning ozuqlanishi, tanasining massasi kuzatilib, daftarga yozib boriladi. Yungning qalinligi ham alohida qayd qilinishi lozim.

3 jadval

Quyoning o'rish va rivojlanishining kunlik nazorati

Nazorat guruhi			Tajriba guruhi		
Quyoning inventar nomeri	Tirik vazni, g		Quyoning inventar nomeri	Tirik vazni, g	
	Davr boshida, g	Davr oxirida, g		Davr boshida, g	Davr oxirida, g
01520	66	1350	01525	65	1405±55
01562	64	1354	01560	65	1402±48
01532	65	1364	01530	66	1395±31
01544	64	1355	01540	64	1390±35
01563	67	1344	01555	64	1398±53
01542	68	1360	01545	64	1405±45
01551	66	1354	01554	66	1400±46
01556	65	1355	01558	66	1402±47
01526	64	1352	01535	65	1403±51
01533	68	1359	01539	64	1399±40

Xulosa. Issiqlik balansi: quyonglarda tana harorati doimiy bo'lmay tashqi muxit haroratiga bog'liq bo'ladi.

5°S tashqi haroratda quyoning tana harorati 37,5° S bo'ladi.

10°S tashqi haroratda quyoning tana harorati 38°S

20°S tashqi haroratda quyoning tana harorati 38,7°C

30-35°S tashqi haroratda quyoning tana harorati 40,5°S

40°C tashqi haroratda esa quyoning tana harorati 41,6°C

Bundan tashqari quyoning jun qoplamiidan kelib chiqib tana harorati turlicha bo'ladi, masalan shinshila zotlarida tana harorati 38,5-39,5° tashkil qilsa, ularning yelka qismidagi harorati 34,7°C, yonboshida 34°C, son qismida 33,5°C, angor quyong zotlari esa 35,4°C; 35,8°C; 36°C bo'ladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, yosh quyonglarning o'rish va rivojlanishiga haroratlarning ta'siri muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo‘ziyev I.A., Qo‘chqorov A.X. “Quyov va nutriya go‘sh t mo‘yna”. O‘quv qo‘llanma. “Dizayn-Press” nashriyoti, Toshkent, 2013yil.
2. Ballasov U., Mamatiminov Sh. “Quyovchilik”. O‘quv qo‘llanma. “ToshDAU” tahririyati nashriyoti, Toshkent, 2016yil.
3. Xolmatov A.X. “Quyovchilik” qo‘llanma, “Tasvir” nashriyoti, Toshkent, 2021yil.
4. Снегов А. Самый полный справочник кролиководов. Учебник. Москва. Издательство: АСТ-2016 год.
5. Балашов И.Е. Мясошкурковые кролики. Учебник. Москва. Издательство: ЭКСМО-2014 год.
6. James I. “Rabbit production”. Study guide. “Science” Publishing. USA 2013 year.